O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
DAVLAT VA HUQUQ INSTITUTI

# ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТИ ВА ҲУҚУҚИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: ЯНГИЧА ЁНДАШУВЛАР ВА УЛАРНИНГ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами




**ТОШКЕНТ – 2025**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
DAVLAT VA HUQUQ INSTITUTI

# ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТИ ВА ҲУҚУҚИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ: ЯНГИЧА ЁНДАШУВЛАР ВА УЛАРНИНГ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференцияси




**ТОШКЕНТ – 2025**

Мазкур тўпламдан Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Давлат ва ҳуқуқ институти, Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази ҳамда Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги Академияси ҳамкорлигида 2025 йил 21 майида бўлиб ўтган “Глобаллашув шароитида янги ўзбекистон давлати ва ҳуқуқининг ривожланиши: янгича ёндашувлар ва уларнинг тенденциялари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари ўрин олган. Материаллар давлат ва ҳуқуқнинг айрим масалаларига, хусусан, Ўзбекистон миллий давлати ва ҳуқуқи назарияси, тарихи ва шаклланишига оид таълимотлар, глобаллашув шароитида Ўзбекистоннинг янги давлати ва ҳуқуқининг эволюцион ривожланишининг замонавий тенденциялари; Ўзбекистон ва халқаро ташкилотлар – Бирлашган Миллатлар Ташкилоти, Жаҳон савдо ташкилоти ҳамкорлигининг ҳозирги ҳолати ва истиқболларига бағишланган.

Глобаллашув шароитида янги ўзбекистон давлати ва ҳуқуқининг ривожланиши: янгича ёндашувлар ва уларнинг тенденциялари / Илмий тўплам. – Тошкент: ЎзФА Давлат ва ҳуқуқ институти, 2025. 727 б.

**Масъул муҳаррир:** академик А.Саидов

**Нашр учун масъул:** М.Турғунов

**Таҳрир ҳайъати:** А.Туляганов, Ш.М.Раҳматуллаев, Ж.Тошқулов, М.Х.Баратов, Р.Т.Хакимов, Н.Азизов

**Техник кўмак:** С.Раҳмонбердиев, А.Ўнгбоев, Т.Жовлиев, О.Пардаев

Тўплам материалларида келтирилган факт, рақам ва бошқа далиллар учун муаллифлар масъулдирлар.

Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Давлат ва ҳуқуқ институти Илмий кенгашининг 2025 йил 30 майдаги 4-сон қарори билан нашрга тавсия этилган. ОАК Раёсатининг қарори асосида мазкур халқаро анжуман тўпламида чоп этилган материаллар илмий тадқиқотларнинг асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган халқаро илмий мақолаларга тенглаштирилган.

© ЎзФА Давлат ва ҳуқуқ институти, 2025

**QAHRAMONOVA Aziza Ulug‘bek qizi,**
TDYU “Xalqaro huquq” yo‘nalishi
tayanch doktoranti

# BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK TUSHUNCHASI (TA’RIFI, TURLARI) VA YANGI O‘ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO‘RAVONLIKDAN HIMOYA QILISH
# ПОНЯТИЕ (ОПРЕДЕЛЕНИЕ, ВИДЫ) НАСИЛИЯ НАД ДЕТЬМИ И ЗАЩИТА ДЕТЕЙ ОТ НАСИЛИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ
# THE CONCEPT (DEFINITION, TYPES) OF VIOLENCE AGAINST CHILDREN AND THE PROTECTION OF CHILDREN FROM VIOLENCE IN NEW UZBEKISTAN

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasiga xalqaro huquq va milliy qonunchiligimiz yuzasidan berilgan ta’riflar ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning turlari va Yangi O‘zbekistonda bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish bo‘yicha olib borilayotgan say-harakatlar nazariy va metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishda BMT kabi xalqaro tuzilmalarning roli va ularning yosh qatlamni zo‘ravonlikdan himoya qilishda davlatimiz bilan yo‘lga qo‘yilgan hamkorligi ko‘rib chiqiladi. Bundan tashqari, maqolada globallashuv jarayonining bola huquqlariga ta’siri tahlil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, bulling, YUNISEF, Bogota chaqirig‘i, BMT, globallashuv, kiber zo‘ravonlik.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются определения понятия насилия в отношении детей в соответствии с международным правом и нашим национальным законодательством. Также теоретически и методологически анализируются виды насилия в отношении детей и усилия по защите детей от всех форм насилия в Новом Узбекистане. Также будет рассмотрена роль международных структур, таких как ООН, в защите детей от насилия и их сотрудничество с нашим государством в защите молодого поколения от насилия. Кроме того, в статье анализируется влияние процесса глобализации на права ребенка.

**Ключевые слова:** насилие в отношении детей, буллинг, ЮНИСЕФ, Боготинский призыв, ООН, глобализация, кибернасилие.

**Annotation:** This article examines the definitions of the concept of violence against children in accordance with international law and national legislation. Also, the types of violence against children and the efforts to protect children from all forms of violence in New Uzbekistan are analyzed from a theoretical and methodological point of view. The role of international organizations such as the UN in protecting children from violence and their cooperation with our country in protecting the younger generation from violence will also be considered. In addition, the article analyzes the impact of the globalization process on children's rights.

**Key words:** violence against children, bullying, UNICEF, Bogota Challenge, UN, globalization, cyber violence.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik - xoh jismoniy, xoh ruhiy yoki jinsiy bo‘lsin - uylarda, ta'lim muassasalarida, jamoalarda va Internetda sodir bo‘layotgan global inqirozdir. Uning ta’siri og‘ir bo‘lib, ruhiy va jismoniy jarohatlar, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan infeksiyalar, ruhiy salomatlik muammolari, masalan, qo‘rquv va depressiya va o‘limga olib keladi. Bundan tashqari, bunday zo‘ravonliklarning oqibati stressni keltirib chiqarishi, miya rivojlanishiga ta’sir qilishi va tajovuzkorlik, giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish va jinoiy xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Zo‘ravonlikni boshdan kechirgan bolalar, shuningdek, kattalar sifatida butun jamoalarga ta’sir ko‘rsatadigan travma va zo‘ravonlik sikllariga ko‘proq duch kelishadi va o‘z navbatida yon-atrofidagilarga ham salbiy ta'sirini ko‘rsatadi. So‘nggi statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, har 4 minutda dunyoning qaysidir burchagida bir bola zo‘ravonlik qurboni bo‘lib qolmoqda [1]. Globallashuv jarayoni, axborot-texnika vositalarining shiddat bilan rivojlanayotganligi ham bunday jinoyatlarning soni oshishi bilan birga, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning yangi turlari ham paydo bo‘lib bormoqda.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasiga va uning turlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, 1989-yilda qabul qilingan “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyaning 19-moddasida zo‘ravonlik tushunchasi shunday yoritilgan: zo‘ravonlik - jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlikning barcha shakllari, shikastlanish va haqorat qilish, beparvolik yoki beparvo munosabatda bo‘lish, qo‘pol munosabatda bo‘lish yoki ekspluatatsiya, shu jumladan jinsiy tazyiq [2]. Milliy qonunchiligimizda esa ushbu tushunchaga yanada to‘liqroq ta’rif berilgan. “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi 2024-yil 14-noyabrdagi 996-sonli qonunning 3-moddasiga ko‘ra “Bolaning hayotiga, sog‘lig‘iga, jinsiy daxlsizligiga, sha’niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob etkazayotgan yoki etkazishi mumkin bo‘lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo‘lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo‘ravonlik deb e’tirof etiladi[3].

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning bir qancha turlari mavjud: jismoni, ruhiy va psixologik zo‘ravonlik, majburiy mehnatga jalb qilish, e’tibordan chetda qoldirish, ekspluatatsiya va odam savdosi, bulling, oilaviy zo‘ravonlik, qurolli to‘qnashuvlarda bolalarni ko‘chirish yoki zo‘ravonlik, kiber zo‘ravonlik, onlayn ta’qib qilish va boshqalar.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonliklarni oldini olish hamda ularga qarshi kurashishda xalqaro-huquqiy mexanizmlarning o‘rni sezilarlidir. Xususan, BMT tashkil etilgandan keyin ayniqsa zo‘ravonliklarga barcham berish bo‘yicha say-harakatlar qonuniy va tashkiliy tus ola boshladi. BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”, 1989-yilda qabul qilingan “Bola huquqlaari to‘g‘risidagi” Konvensiya va unga qo‘shimcha protokollar kabi xalqaro huquqiy asoslari bu sohani tartibga solishga muhim asosiy hujjatlar hisoblanadi[4]. Bundan tashqari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bolalar jamg‘armasi (UNICEF) bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi global kurashda markaziy rol o‘ynaydi. Bu sohada UNICEF faoliyatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar: targ‘ibot va

tashviqot ishlarini olib borish; ma’lumotlarni yig‘ish va o‘rganish; davlatlarga bolalarni himoya qilish bo‘yicha milliy strategiya va dasturlarni amalga oshirish, bolalarning zo‘ravonlik, ekspluatatsiya va e’tiborsizlikdan xoli hayot kechirishini ta’minlash uchun yordam berish; qurolli to‘qnashuvlar, ko‘chirish yoki tabiiy ofatlar kabi favqulotda vaziyatlarda bolalar uchun xavfsiz joylar, psixologik yordam va hamjihatlik dasturlarini taqdim etish.

Shuningdek, BMT Bosh Kotibining bolalarga nisbatan zo‘ravonlik masalalari bo‘yicha maxsus vakili ham mavjud bo‘lib, u bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllarini oldini olish va bartaraf etish yuzasidan faoliyat olib boradigan mustaqil advokat hisoblanadi. Ushbu lavozim, 2007-yil 18-dekabrdagi BMT Bosh Assambleyasining 62/141-sonli bola huquqlaraiga bag‘ishlangan rezolyutsiyasi bilan ta’sis etilgan[5]. 15 yillik faoliyati davrida ushbu mandat ko‘plab taqdiqotlab olib borgan. Misol uchun bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berishning iqtisodiy manfaatlari aniqlangan. Ya’ni, dunyo bo‘ylab bolalar turmushiga chek qo‘yich 2030-yilgacha yiliga 17 milliard dollar tejash imkonini berishi yoki barcha bolalar maktabni to‘liq tugatsa, milliy ishlab chiqarish daromadi 4% dan 14% gacha oshishi aniqlangan[6]

2025-yil 5-9-fevral kunlari yurtimizda bo‘lib o‘tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-Assambleyasi doirasida BMT Bosh kotibining bolalarga nisbatan zo‘ravonlik masalalari bo‘yicha maxsus vakili Najat Maalaning tashrifi doirasida ham bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish bo‘yicha hamkorlikni yanada kuchaytirish yo‘llari kelishib olindi.

Shu o‘rinda Bogota chaqirig‘iga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, 2024-yil 7-8-noyabr noyabr kunlari Kolumbiyaning Bogotta shahrida dunyo yuzlab davlatlar vazirlari bolalar o‘z uylarida, maktablarida, jamiyatlarida va internetda xavfsiz bo‘ladigan dunyoga erishish maqsadida birlashishdi. Kolumbiya, Shvetsiya hukumati, UNICEF, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibining bolalarga nisbatan zo‘ravonlik bo‘yicha maxsus vakili va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ko‘magida chaqirilgan ushbu konferentsiya bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni tugatish bo‘yicha misli ko‘rilmagan majburiyatlarni keltirib chiqardi va 110 ta davlat a'zo sifatida kiritildi hamda 6 ta asosiy maqsad belgilab olindi[7]. O‘zbekiston bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllariga barham berishga qaratilgan “Bogota chaqiruvi” xalqaro tashabbusiga sodiqligini rasman tasdiqladi. Bu haqda Milliy ijtimoiy himoya agentligi va UNICEF hamkorligida tashkil etilgan “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka barham berish: global tashabbuslar va O‘zbekiston istiqbollari” mavzusidagi davra suhbatida ma’lum qilindi.

Butun dunyoda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan jadal islohotlar, albatta, yurtizmizni ham chetlab o‘tgani yo‘q. 2024-yil 14-noyabrda “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-996 qabul qilinganligi ham fikrimizga yaqqol misol bo‘la oladi. Ushbu qonunda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasinga keng qamrovli ta’rifi va bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishning asosiy tamoyillari ham keltirib o‘tilgan[8]. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-sonli Farmoni bilan tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasi

Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligining voyaga etmagan bolalarni himoya qilish yo‘nalishidagi ustuvor vazifalari etib quyidagilar belgilangan[9]:

-bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-vasiylik va homiylik tizimini takomillashtirish, shu jumladan oilaga asoslangan bolalarni parvarish qilishning muqobil shakllarini rivojlantirish;

-farzand asrab olish tizimini takomillashtirish;

-ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishni tashkil etish;

-himoyaga muhtoj bolalarni davolashni tashkil qilish tizimini takomillashtirish.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, globallashuv jarayoni, axborot-texnologiytalarning kundan-kunga rivojlanayotganligi sababli bolalarga nisbatan zo‘ravonliklarga barham berishga e’tibor kuchayib bormoqda va dunyo davlatlari ham bu borada hamkorlikni yo‘lga qo‘yishmoqda. Xususan, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashda xalqaro tashkilotlarning, ayniqsa, BMTning o‘rni beqiyosdir. Shuningdek, Yangi O‘zbekistonimizda ham bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish kun tartibidagi muhim masalalardan biri sifatida belgilangan. Buni O‘zbekiston Bolalar farovonligi bo‘yicha global indeksda 16 ta pog‘onaga ko‘tarilganligi ham asoslaydi.

**Adabiyotlar**


2. Eliminating violence against children, Handbook for parlamentarians №13-2007, UNICEF, 84 p (8-page)
3. https://lex.uz/uz/docs/-7219502
4. Philip E.Veerman. The Rights of the Child and the Changing Image of Childhood. Kluwer Academic Publishers, The Netherlands, 1992, 655 p (75-page)
5. Resolution adopted by General Assembly on 18 December 2007. 62/141 Rights of the child // URL: https://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/globalcompact/A_RES_62_141.pdf
6. Ending violence against children is possible. Office of the Special Representative of the Secretary_General on violence against children. 15 ears of advocacy
7. First Global Ministerial Conference on Ending Violence against Children: Bogotá Call to Action Bogotá, 7-8 November 2024 // URL: https://endviolenceagainstchildrenconference.org/wp/content/uploads/2024/12/FINAL-BOGOTA-CALL-TO-ACTION.pdf
8. https://lex.uz/docs/-7219502
9. https://lex.uz/docs/-6480342#-6483388

# Мундарижа


1. **САИДОВ Акмал Холматович** Кириш........................................ 4
2. **АБДУҲАЛИМОВ Баҳром Абдураҳмович** Кириш ўрнида............ 7
3. **ТУРҒУНОВ Мурод Турсунбоевич** Гражданское общество: современное понимание............................................................ 9

**ТИЛЛАБАЕВ Мирзатилла Алишерович** Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг 2030 йилгача бўлган миллий стратегияси лойиҳасининг асосий қоидалари....................... 18

**ҒАФУРОВ Асқар Бойисович** Ўзбекистонда конституциявий назоратни такомиллаштиришнинг долзарб масалалари.................... 23

**ТАЖИБОЕВ Маъруфжон Маматожиевич** "Ўзбекистон – 2030" стратегияси": суд ҳужжатларини такомиллаштириш муаммолари ва таклифлар 27

**ТАЖИБОЕВ Маъруфжон Маматожиевич, ИСЛАМОВ Баҳтиёр** Глобаллашув шароитида суд соҳасида етук кадрларни тайёрлаш истиқболлари.................................................................... 32

**АХМЕДШАЕВА Мавлюда Ахатовна** Некоторые теоретико-правовые вопросы исследовании права ...................................... 39

**ТОШКУЛОВ Жўрабой** Глобаллашув шароитида давлат ва ҳуқуқ масалаларига янгича ёндашувлар – давр талаби............................... 44

**ОКЮЛОВ Омонбой** Ўзбекистон Республикасининг БСТга аъзолиги: кўп қатори сиёсий нуфузга эга бўлиши ёки иқтисодий ҳуқуқий имкониятлар майдони............................................... 49

**ТУРСУНОВ Ахтам Саломович** Ўзбекистонда ҳуқуқбузарликлар профилактикасини таъминлашнинг долзарб масалалари.............................. 56

**ХОЛМЎМИНОВ Жуманазар Тоштемирович** Глобаллашув шароитида экологик-ҳуқуқий таълим ва ҳамкорликни ривожлантиришнинг ўзига хос хусусиятлари.................................... 64

**ТУЛЯГАНОВ Абдуманноп Абдужабборович, ТУРҒУНОВ Муҳаммадбобур Абдусалом ўғли, ЎНГБОЕВ Арслон Бердиёр ўғли** Суньий ақл ва рақамли муҳитни ривожлантиришнинг замонавий тенденциялари.................................................................. 69

**БАРАТОВ Миродилжон Хомуджонович** ЖСТ амалиётида материаллар оқимини бошқаришнингфункционал ўзаро мувофиқлаштириш механизми........................................................ 79

**АЗИЗОВ Ниғмонжон, УМАРОВ Закир Равупович** Ўзбекистоннинг янги таҳрирдаги конституциясида ҳуқуқий давлат концепциясининг ифодаланиш............................................... 90

**НУРИДДИНОВ Эркин Зухриддинович** Формирование правовых основ и развитие сотрудничества Узбекистана и Азербайджана в новых исторических условиях........................................................ 95

**ХАКИМОВ Равшан Тулкунович, КАМИЛЬДЖАНОВ Абдурахим Абдулахатович** Ахборот таҳдидларига қарши курашиш бўйича халқаро тажриба............................................. 107

**РАХМАТУЛЛАЕВ Шавкатжон Мухаммадалиевич** Экономика нового Узбекистана: стартовые условия и углубление рыночных преобразований........................................................................ 120
**БАЗИНА Ольга Олеговна** Конституционное развитие Китайской Народной Республики 133
**НАГИЕВА Амина Алиевна** Тенденции развития консульских отношений Республики Узбекистан с государствами участниками СНГ…………………………………………………………………….. 144
**СУЛЕЙМАНОВ Артур Рамилевич** Республика Узбекистан: на пути в ВТО и ЕАЭС……………………………………………...... 150
**ТУРСУНОВ Ахтам Саломович, ҚОБИЛОВ Шариф Рахимович** Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашиш сиёсати: устувор вазифалар ва уларнинг ечимлари........................................ 156
**МУХИТДИНОВА Феруза Абдурашидовна** Актуальность правовых учений в условиях реформ в Новом Узбекистане………………………………………………… 165
**ХУДОЙБЕРДИЕВ Ахрор Қосималиевич** Ҳуқуқни амалга ошириш самарадорлигига эришиш истиқболлари............................ 174
**ИСАНОВ Холмурод Рузиевич** Форс-мажор ҳолатига оид ҳуқуқий таълимотларнинг тарихий шаклланиши ва ривожланиш босқичлари: янгича ёндашув........................................................ 181
**ОДИНАЕВ Адҳам Саъдуллоевич** Форс-мажор мажбуриятларни бузганлик учун фуқаролик-ҳуқуқий жавобгарликдан озод қилиш асоси сифатида........................................................................... 190
**РАСУЛЕВ Улугбек Эркинович** Меры предупреждения торговли людьми осуществляемые органами внутренних дел........................ 195
**МАМЕДОВ Эргун** Внешняя политика Узбекистана: многовекторная дипломатия на оси Восток-Запад............................ 200
**АКРАМХОДЖАЕВ Бори Тохтаходжаевич** Жаҳон савдосидаги рақамли протекционизм ва унинг протекционизмдан фарқи............ 204
**TORAXODJAEVA Iqbolxon Djuraevna** O‘zbekiston respublikasining jstga a'zo bo‘lishining zararsiz xolda xalqaro savdo bilan shug‘ullanishini ta'minlash masalalari......................................... 218
**МАХМУТХОДЖАЕВА Луиза Сайфулловна** Государственное регулирование и защита отраслей экономики Убекистана при вступлении в ВТО......................................................................... 222
**КУРБАНОВА Эльмира Асадовна** Деятельность ОВД по профилактике безнадзорности и правонарушений среди несовершеннолетних……………………….............................. 234
**А** 239
**ЧИНИБАЕВ Хусан** Глобаллашув шароитида Ўзбекистонда ички ишлар органлари томонидан инсон ҳуқуқлари таъминланишининг долзарб масалалари......................................................................... 249

**РАХМОНОВ Зафаржон Зайниддинович** Юридик фан ва ҳуқуқни қўллаш амалиётида ягона ёндашувнинг қўллаш масалалари........................................................................................ 254
**ОРИПОВ Нурали Пиримқулович** Маҳаллий бошқарув органларида ахборот сиёсатини юритиш амалий-ҳуқуқий масалалари…………………………………………………........ 259
**MIRZAAXMEDOV Zohid Mahmudovich** Erkin va halqparvar davlat qurish yo‘lida: islohat va natijalar……………….......................... 263
**РАДЖАБОВ Бахтиёр Эрманович** Ўзбекистон республикасида солиқ таҳлилининг фискал сиёсат самарадорлиги............................ 267
**DJALILOV Sardor Shavkatovich** Nnt va O‘zbekistondagi nogironligi bo‘lgan shaxslar tashkilotlari faoliyati................................ 273
**RAHMATOVA Yulduz Rustamovna** AQShning shakllanishida falsafiy g‘oyalarning o‘rni: asoschilarni ilhomlantirgan tamoyillar......... 282
**ADASHALIYEV Azizbek Zafarjon o‘g‘li** Avestoda milliy davlatchilik va huquq nazariyasi……………................……...... 289
**BEGATOV Jasurbek Numonjanovich** O‘zbekistonda insonning mehnat huquqlarini muhofaza qiluvchi kasaba uyushmalari faoliyatining huquqiy asoslari............................................................. 292
**ТУРДАХУНОВ Мухамаджон Кудайбергенович** Қарздорлик ҳ 97
**САЙДАХМЕДОВ Умид Муродович** Сувдан фойдаланишни тартибга солишнинг фуқаролик-ҳуқуқий масалалари бўйича хитой тажрибаси........................................................................................ 302
**УМИДУЛЛАЕВ Қаҳрамон Усманович** Давлат хизматига кадрлар танлаш, тайинлаш ва уларнинг фаолиятини баҳолаш амалиётини такомиллаштириш....................................................... 310
**USMONOVA Mahliyo Sobirjon qizi** Nikohdan ajralishlarning ijtimoiy omili sifatida o‘zga shaxslarning aralashuvi va moddiy qiyinchilik……............................................................................... 322
**ДАМИНОВ Хусниддин Абсаломович** Қишлоқ хўжалиги соҳасида фермер хўжаликлари фаолиятига доир айрим масалалар.......................................................................................... 327
**BOROTOV Alisher Xomidovich** Xususiy mulkni himoya qilishda xorijiy tajriba va milliy amaliyot………............................................ 334
**МАШКУРОВ Ғайрат** Қонун ҳужжатлари ижросининг ҳуқуқий мониторингини ўтказишга таъсир кўрсатувчи омилларнинг назарий таҳлили......................................................................... 340
**КАЛАНДАРОВА Маликахон Пирназаровна** Globallashuv sharoitida O‘zbekistonning yangi davlati va huquqining evolyutsion rivojlanishining zamonaviy tendentsiyalari……….......................... 347
**ALLAMBERGENOV Saparbay Dauletbayevich** Davlat mexanizmida hukumatning tutgan o’rni……………...………............................ 354
**NASULLAYEV Mubin, TOLIPOVA Moxlaroyim,** Virtual makonda fuqaroviy huquqiy munosabatlarni tartibga solish masalalari................. 359

**САИДОВ Акром Акмалович** Жиноят-ижроия қонунчилигини ривожлантириш концепцияси борасидаги айрим фикрлар............... 364
**АДЫГЕЗАЛОВ Азер Надир огли** Узбекистан-Азербайджан: путь к союзническим отношениям........................................................... 376
**РАХМОНОВ Сарварбек Азимжонович** Биринчи инстанция судининг маъмурий суд иш юритуви бўйича одил судловни амалга ошириш ваколатларининг илмий-назарий асослари.......................... 388
**ISMAILOV Ozod Matlabovich** Legal features of intellectual property rights protection in the context of uzbekistan's accession to the wto........ 396
**YOQUBJONOV Ma'rufjon Odiljon o'g'li** Adliya - 2030: O'zbekistonning adliya tizimini modernizatsiya qilish yo'lida…........... 401
**ABDIBOSITOV Abduqodir Abdurahmon o'g'li** IIO xodimlarida kasbiy-huquqiy ong deformatsiyasining sabablari: nazariya va amaliyot ziddiyati……………...……………………………….................... 406
**ИБОДУЛЛО Хайрулло Жахонгир угли** Механизмы осуществления парламентского контроля в Республике Узбекистан: проблемы и решения……………………..……......... 410
**QODIROV Xursanali Nurali o'g'li, BLASHEVA Manshuk Tastemirovna** Fuqarolarning ekologik axborot olish huquqi – iqlim o'zgarishiga qarshi kurashning asosi…………………………....... 415
**ISMOILOVA Nazokatxon Shuxratjon qizi** Ma'lumotlarning taqsimlangan reyestri texnologiyalari vositasida tuziladigan shartnomalarning afzalliklari va yuridik kuchi....................................... 418
о 423
**НУРИДДИНОВ Жасур** Иқтисодий ва фуқаролик ишлари бўйича судларда суд харажатларини компенсация қилишнинг айрим жиҳатлари.......................................................................................... 238
**ХУЖАНОВ Тиллабек Келдибекович** Янги Ўзбекистон конституциясида бола ҳуқуқлари ифодаси……………………......... 433
**IBODILLAYEV Haydar Ibodilla o'g'li** Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Turkistonning ma'muriy-hududiy boshqaruvi va sud tizimi……….......................................................... 437
**MUHAMMADJANOV Abrorjon Akmaljon o'gli** MDH mamlakatlarida prokuratura organlarining huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlari haqida ayrim nazariy yondashuvlar……….................. 441
**ABDIKERIMOVA Madina Miyat qizi** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompitentligini klaster asosida takomillashtirish......... 46
**SHAKAROVA Aziza Anvarovna** O'zbekiston va Birlashgan Millatlar Tashkiloti: inson qadri-qiymati yo'lidagi hamkorlik............................ 449
**ODILOV Jamshid Bobirmirzo o'g'li** Elektron boshqaruvni joriy etishning huquqiy asoslari:qiyosiy tahlil……………………............ 453
**ABDULLAYEVA Nodira Odil qizi** Criminogenic factors of domestic violence.......................................................................................... 461

**AKILBEKOVA Saltanat** Davlat boshqaruvini raqamlashtirish: fuqarolarning huquqlarini kengaytirish uchun boshqaruvni o‘zgartirish........................................................................................ 469
**JO‘RAYEV Sulton Murodullo o‘g‘li** Conditions and factors of the formation of the Bukhara People’s Soviet Republic............................... 474
**YOQUBOV Farxod Karimjon o‘g‘li** Xalqaro tashkilotlar tomonidan migratsiya jarayonlarining tartibga solinishi va unda o‘zbekistonning ishtiroki…………………………………....................................................... 483
**JAMOLOV Azizjon Nodir o‘g‘li** Sud mustaqilligini ta’minlashda malaka hay’atlarining o‘rni: qiyosiy-huquqiy tahlil…………............ 487
**SHARIPOV Dilshod Baxshilloevich** Birlashgan Millatlar Tashkilotining universal tinchlik g‘oyalari………………………......... 493
76. **QODIROV Xursanali Nurali o‘g‘li, XOMIDOV Jasur Ikromjon o‘g‘li** Iqlim o‘zgarishi sharoitida aholining ekologik migratsiyasi…...... 497
77. **MIRZAKARIMOVA Dilafruz Doniyorjon qizi** Davlat boshqaruv tizimini modernizatsiya qilishning o‘ziga xos shakllari……................... 501
78. **НУРМАТОВ Суннатилло Узоқ ўғли** Маҳалла ўзини ўзи бошқариш органи сифатида: тарихий ва ҳуқуқий таҳлил……........... 505
79. **BEGATOV Jasurbek Numonjanovich** Insonlarning mehnat huquqlarini muhofaza qiluvchi xalqaro tashkilotlar……....................... 509
80. **ASHURAXUNOVA Shahnoza Toxir qizi** Globallashuv sharoitida O‘zbekiston qonunchiligini kodifikatsiyalash jarayonini takomillashtirish masalalari.................................................................. 515
81. **HAMDAMOV Shahzod Maqsud o‘g‘li** Issues of digitalization of the system of the ministry of justice of the Republic of Uzbekistan............... 523
82. **RAHMATOVA Yulduz Rustamovna** Huquqning vazifasi va manbalari: AQSh asoschilari nazariyasi va Yangi O‘zbekiston amaliyoti 530
83. **ОВУЛОВ Пулатжон Ильхом угли** Некоторые теории гражданско-правовой ответствефнности государства……………...... 539
**JURAYEVA Muslima Baxodir qizi** Ayollarga nisbatan oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikning jinoyat-huquqiy tahlili…………….......... 553
**ISOMUHAMMEDOVA Soliha Mirodiljon qizi** Hududlarda turizm loyihalarini rivojlantirishning aholi bandligi va daromadliligiga ta’siri…………………………........................................................... 560
**BOBONAZAROVA Dilnura Shavkatovna** Chet ellik investorlarning O‘zbekiston sudlarida qatnashishi va ularning huquqiy himoyasi........... 564
87. **ESHQOBILOV Bunyodbek** Farobiy va Beruniyning davlat va huquq haqidagi qarashlari………................................................................. 570
88. **XUDOYBERDIEVA Maftuna Zafar qizi** Bola huquqlari tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi: tarixiy-huquqiy tahlil........ 574
89. **QAHRAMONOVA Aziza Ulug‘bek qizi** Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasi (ta’rifi, turlari) va Yangi O‘zbekistonda bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish…………………….............. 581

90. **ШЕРБАДАЛОВ Равшанбек Турсунович** Судьялар корпусини шакллантириш тартибини такомиллаштиришнинг замонавий. тенденциялари…………………………........................................ 585
**МАМАСОЛИЕВ Саидакмал** Жаҳон савдо ташкилоти ва Ўзбекистон........................................................................................... 591
**ABDURASULOV Zohidjon Bobir o‘g‘li** Jahon savdo tashkiloti va O‘zbekiston hamkorligi istiqbollari……………………….................... 599
**ЎНГБОЕВ Арслон Бердиёр ўғди** Глобаллашув шароитида ёшлар маънавиятини юксалтириш тенденциялари…................................. 606
**РУСТАМОВ Самандар Жаҳонгир ўғли** Абдулла Қодирий асарларида ҳуқуқий қарашлар……………………………………........... 611
**ISMAYILOV Akmal Ziyadillayevich** Markaziy Osiyo xalqlari tarixida huquqiy davlatchilik g‘oyalarining shakllanishi……….............. 614
**JOVLIYEV Turg‘unpo‘lat Murodjon o‘g‘li** Nogironligi bo‘lgan shaxs tushunchasi va uning huquqda tutgan o‘rni va roli………......... 619
**ТУРСОАТОВ Содиқ Худоёр ўғли** Давлат хизматини ривожлантиришда ҳуқуқий рағбатлантиришнинг аҳамияти............ 632
**ДАМИНОВ Рустам Бахтиёр ўғли** Жиноий фаолиятдан олинган даромадларни легаллаштирганлик учун жавобгарликка оид иқтисодий, институционал ҳамда социологик назариялар................ 641
**ESHMATOVA Sevinch Sherzod qizi** Migratsiyaning turlari va shakllari, migratsiyanining sababi, kelib chiqishi va oqibatlarini asoslab beradigan ilmiy nazariyalar.............................................................. 647
**IMOMNAZAROV O‘tkirbek O‘ral o‘g‘li** Munavvar qori abdurashidxonovning huquqiy qarashlari………………………....... 656
**JO‘RAYEVA Zuhra Jalol qizi** Ijtimoiy, siyosiy huquqlarimiz jamlangan hujjat……………………………………………….......... 662
**SADULLAYEVA Shoxista Davron** qizi Raqamli texnologiyalar davrida inson huquqlari himoyasini ta’minlashning ijtimoiy zaruriyati........................................................................................... 665
**ПАРДАЕВ Акмал Юлдашевич** Ҳуқуқий тартибга солишнинг ижтимоий зарурияти ва ўзига хос хусусиятлари……………........ 670
**ҒАНИЕВ Фаррух** Туркия Республикасининг Конституцияси ва Ўзбекистон-Туркия ҳамкорлиги қонун соҳасидаги алоқалар ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар мисолида................................ 674
**MAHMUDOV Nizomiddin Olimjon o‘g‘li** Intellektual mulk huquqida patentlashtirish tizimi va amaliyoti: sanoat namunasi misolida…………………………………………………….................... 678
**ТУРСУНБОЕВ Сардор Муроджон ўғли** Прокуратура органлари тизимида тергов тузилмаларининг бошқа тергов органлари билан ҳамкорлигини ривожлантириш………………………………………… 688
**ДУСАНОВ Эшкабул Эрназарович** Жиноий жазони ижро этиш жойларида сақланаётган маҳкумлар билан муомала қилишга оид махсус халқаро-ҳуқуқий стандартлар……………………………….. 696

**ШОДМОНОВ Элдор Эгамбердиевич** Инсоннинг ижтимоий-иқтисодий ҳуқуқларини тамъминлаш борасидаги ислохатлар орқали Ўзбекистонда кам таъминланганлик даражасини камайтиришга эришиш…………………………………………….. 709

# Глобаллашув шароитида янги Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқининг ривожланиши: янгича ёндашувлар ва уларнинг тенденциялари

халқаро илмий-амалий конференция
материаллари тўплами

Босишга рухсат этилди: 09.06.2025 й.
Бичими ... . Ҳажми ... босма табоқ.
Адади ... нусха.

.... босмахонасида чоп этилди.
Тошкент ш., ... кўчаси, 100.